



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**BOSHLANG'ICH TA'LIMGA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI  
TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY  
TENDENSIYALARI VA  
RIVOJLANISH OMILLARI  
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**MATERIALLARI**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМГА РАҶАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТЬИҚ  
ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**БУХОРО - 2021**

последовательности (то есть иметь план). Тематика сочинений по картине разнообразна – почти все виды сочинений, различаемых по жанру, могут быть проведены по картине. С использованием картин на уроках русского языка и литературы может быть связано обучение учащихся сочинениям самых разнообразных видов – описаниям по наблюдениям, портретной характеристике, рассуждениям.

В работе над сочинением развивается мышление, воля, выдержка, настойчивость, повышается работоспособность, усиливаются воображение, внимание и память. Л.Выготский подчеркивал, что литературное творчество становится доступным для ребенка только на очень высокой ступени развития личного внутреннего мира. Эта психологическая предпосылка успешной творческой работы, выдвинутая ученым, и должна определять всю систему последовательного обучения написанию сочинений.

Речь наших детей часто бедна потому, что они не стремятся говорить более ярко и разнообразно, учащиеся обычно знают о возможностях речи, но не умеют ими пользоваться, уроки развития речи не направлены на развитие умения мыслить с помощью языка, общепринятая методика не ориентирована на подготовку детей к реальной жизни, к решению жизненных задач посредством речи.

Использованная литература:

- 1.Л. С. Выготского «Концепция толкования письменной и устной речи», Москва,2010 г.
- 2.Д. Б. Эльконина «Методика преподавания родного языка», изд. Москва 2013г.
3. Н. И. Жинкина, А. А. Леонтьева «Методика обучения в начальных классах», изд. Россия Достижение Науки и Техники. 2016 г.
- 4.А. Р.Лурия «Изучение правильного подхода обучения в начальных классах», Казань 2018 г.

## O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA MEVALI DARAXTLARNING OBRAZLANTIRILISHI

*Rustamova Gavhar Bahron qizi- BuxDU tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqimiz turmushiga va ruhiyatiga chuqur singib ketgan o'zbek xalq qo'shiqlarida uchraydigan mevali daraxtlarning obrazlantirilishi hamda o'zbek xalqining daraxt obrazi bilan bog'liq qarashlari genezisini, uning badiiy turlari va talqinlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: xalq qo'shiqlari, mevali daraxtlar, mifologiya, marosim, hosildorlik, tut, anjir, yong'oq, izum, olma, jyida.*

*Аннотация. В статье проводится научный анализ фруктовых деревьев в узбекских народных песнях, глубоко укоренившихся образ жизни и психике нашего народа, а также генезис взглядов узбекского народа на образ дерева, его художественные формы и интерпретации.*

*Ключевые слова: народные песни, фруктовые деревья, мифология, обряд, плодородие, шелковица, инжир, грецкий орех, виноград, яблоко, дзийда.*

*Abstract. This article scientifically analyzes the depiction of fruit trees in Uzbek folk songs, which are deeply ingrained in the life and psyche of our people, as well as the genesis of the Uzbek people's views on the image of the tree, its artistic forms and interpretations.*

*Keywords: folk songs, fruit trees, mythology, ritual, fertility, mulberry, fig, walnut, grape, apple, jiida.*

Daraxt poetik obrazi xalq qo'shiqlarida faol uchraydigan jonli tabiatning bir bo'lagidir. Xalq qo'shiqlarida daraxtlar obrazi, odatda, farzand, oila g'oyalari bilan bog'lanadi. Qadimgi insonlar daraxtlarni mevali va mevasiz bo'lishiga qarab, ularning ham inson kabi jinsi bo'ladi, deb o'yagan. Bir xalq qo'shig'ida shunday deyiladi:

**Tog`da archa gullaydi olmurutman,  
Pastda terak gullaydi erkak tutman.**

Ko'rinyaptiki, baytda erkak tut nomi tilga olinayotir. Folklorshunos A.Musaqulov ta'kidlaganidek: "Modomiki tutning erkagi bor ekan, demak, uning ayoli ham bo'lishi tabiiy. Turkiy xalqlar tasavvurlarida ota daraxt, ona daraxt, urug` daraxti, har bir kishining o'z umr daraxti bo'ladi, deb ishonganlar. Inson hayoti mohiyatiga ko'ra o'z egizak daraxti hayoti bilan bog`liq bo'lgan". [2.209]

O'rik – xalq qo'shiqlarida eng ko'p uchraydigan daraxt obrazlaridan biri. Quyida uning motam bilan bog`liq yo'qlov qo'shig`idagi talqini kuzatiladi:

**O'rikdan toylar qilay-ov,  
Bargiga maktub bitay-ov,  
Hayit kuni bolajonimni,  
Yig`lab-yig`lab yod etay-ov. [4]**

Yoki:

**Olmadan otlar qilayin,  
Bargiga xatlar bitayin.  
Hayit kuni onajonimni,  
Yig`lab-yig`lab yod etayin. [4]**

O'rik, olma – jannat mevalaridan biri deb qaralgan. Shunday tasavvur-tushunchalar orqali yo'qlov mazmunidagi qo'shiqlarda bu dunyoni tark etgan yaqinining jannatda bo'lishini istash, u bilan jannatlarda ko'rishish tilagi, sirli narigi dunyo vakiliga aylangan inson bilan sehrli predmetlar vositasida aloqa bog`lash mumkinligi tushunchalari ifoda etiladi.

Bahor kelishi bilan bog`da gul ochgan o'rik, uning shoxiga qo'nib sayrayotgan bulbul, mayin tomchilayotgan bahor yomg'iriyu sokin esgan shabada – barcha-barchasi lirik qahramonga marhum yaqinini eslatib o'rtantirishi Navro'z yo'qlovlarida alohida ta'kidlanadi:

**Mana o'rik bu yil yana gul ochdi,  
Osmondag'i bulutlar har tomon qochdi.  
Qalbimning yarasi battar tutoqdi,  
Bu o'ylarim meni aslo tark etmas. [4]**

Ba'zi qo'shiqlarda insonning tana a'zolari ayrim mevalarga o'xhatilgani kuzatiladi. Masalan, yorning yuzi qizil olmaga, ko'zi o'rikka, qovog'i bodomga, miyasi yong'oq mag'ziga, sochi majnuntolga va hokazo. Quyidagi misralarda yorning ko'zi o'rikka o'xhatilmoqda:

**O'rik-o'rik ko'zingdan, o'rik-o'rik,  
O'rtanaman ko'rganda seni ko'rib.  
O'rtanguncha-kuyguncha seni ko'rib,  
Yonboshimda o'tirgin soching o'rib. [3]**

Xalq qo'shiqlarida mevali daraxtlar ko'pincha, ayollarga nisbatan obrazlashtirilib, badiiy-ramziy poetik ma'no tashib keladi. Bu jihatdan **olma** xalq lirik qo'shiqlarida

nihoyatda keng qo'llanadigan ramziy obrazdir. Xalq orasida bu meva haqida alohida yaratilgan "Olmaginam" qo'shig'i juda mashhur.

**Jiyda** qiyosiy manba vazifasini o'tagan parallelizmli qo'shiqlarni ham ko'p uchratish mumkin. Ularda jiyda, odatda, salbiy va kinoyaviy obrazlar bilan parallel keltiriladi. Sababi, u suvsiz, tabiiy sharoiti og'ir yerlarda o'sadi. O'zidan (ayniqsa, gullaganda) inson uchun xavfli efir moyi chiqarib turadi. Bargining rangi yashil bo'lmay, kulrangligi jihatidan sirli va g'alati qabul qilinadi. Inson jiydada yomon ruhlar, shaytonlar makon quradi, deb tasavvur qiladi. Shuning uchun jiydaning tagida uzoq o'tirish, uqlash taqiqlanadi. Hatto "shayton bor joyga boshqa yovuz kuchlar kirolmaydi" degan qabilda jiydadan shoxachalar sindirib olinib" ko'z tegmasin" degan maqsad bilan uylarning peshtoqiga ilib qo'yiladi. Shu yo'l bilan yovuz kuchlar qo'rqtiladi.

**Ariq bo'yida jiyda,  
Jiydaning guli mayda.  
Hammaning yori uyda,  
Bizning qalamqosh qayda?**

Qo'shiqda beburd, bevafo yor obrazi jiyda obraziga parallel holda gavdalantirilmoqda. Xalq fikrining badiiy – poetik bayoni uchun hamisha mos tushadigan, qulaylik tug`diradigan obrazlarni qiyosiy manba sifatida tanlab oladi. Tanlangan qiyosiy manba lirik qahramon kayfiyatiga mos tushishiga ham e'tibor beriladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan qo'shiqda ham xuddi shunday manzarani ko'rish mumkin. Chunki jiyda mevasi sevib eyiladigan, shifobaxsh deb qaraladigan, ayni paytda, rangi, gulining hidi jihatidan uncha yoqtirilmaydigan daraxt bo'lgani kabi bevafo yor ham har qancha sevimli bo'lmasin, nafrat uyg'otishi ham mumkin.

Xalqimizda jiyda daraxti turli xil ma'nolarda tushuniladi:

- jiyda baxtli yashash, serfarzandlikka magik ta'sir qiladi;
- jiyda daraxtida turli yovuz kuchlar to'planadi;
- jiyda balo- qazolardan va yomon ko'zlardan saqlaydi.

Shu sababli kelinchak ketayotgan aravaga jiyda gullarini ilishgan. Yomon ko'zlardan va balo-qazolardan asrash maqsadida bolalarga jiyda danagidan yasalgan tumorlar taqish odatlari bugungi kungacha ham saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq she'riyatida O'zbekiston hududida o'sadigan mevali va mevasiz daraxtlarning deyarli barchasi tilga olinadi, ammo olma, tut, jiyda, o'rik, anor, bodom, olcha kabi sermeva va serurug' daraxtlar juda faol qo'llaniladiki, genezisiga ko'ra bu xususiyat ham hosildorlik va serfarzandlik g'oyasi bilan bog'llanadi.

#### Adabiyotlar:

4. Амонов Р. Қиссаи беди баланд, чанори пургул ва себи Самарқанд. – Душанбе: Маориф, 1980. – С. 52-60.
5. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.209.
6. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Хрестоматия. – Т.: Алоқачи, 2008. – Б.74.
7. Ўраева Д.С. Бўзлардан учган ғазал-ай. – Т.: 2004. – 124 б.

**БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ДАРСДАН  
ТАШҚАРИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШГА  
ТАЙЁРЛАШ ЙЎЛЛАРИ**

Адиба Бахронова, БухДУ ўқитувчиси

<b>Teshaboev A.YO.</b> Современные подходы к физическому развитию детей дошкольного возраста	<b>490</b>
<b>Cho'lliyeva G.T., Fayziyeva D.T.</b> Ot so`z turkumini o`rganishda o`quvchilarning so`z boyligini oshirish imkoniyatlari	<b>492</b>
<b>Акрамов А.Ш.</b> Новый подход изучения отношения к здоровому образу жизни	<b>494</b>
<b>Гафоров Ш.У.</b> Современные технологии формирования и развития здорового образа жизни личности	<b>498</b>
<b>Ubaydullayeva Sharofat.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish	<b>502</b>
<b>Saidova M.J., Aminjonova G.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik tamoyillari	<b>504</b>
<b>Saidova M.J., Elova M.</b> Harakatga oid masalalarni axborot texnologiyalar asosida tushuntirish metodikasini takomillashtirish	<b>507</b>
<b>Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna.</b> boshlang'ich ta'lim hikoya o'qish darslarida insoniy fazilatlarni singdirish	<b>512</b>
<b>Авезов С.С.</b> Навоий ижодида фольклор анъаналари	<b>514</b>
<b>Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи, Шойимқулова Мадина.</b> Башлангич синф ўқитувчисининг ахборот ва коммуникация технологиялари соҳасидаги компетенциявий фаолияти	<b>518</b>
<b>Hakimov F.N., Qosimova A.F.</b> Boshlang'ich sinflarda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari	<b>521</b>
<b>Садуллаева М. Г., Кеитко Фаина.</b> Современные приемы обучения написанию сочинений в начальных классах	<b>524</b>
<b>Rustamova Gavhar Bahron qizi.</b> O'zbek xalq qo'shiqlarida mevali daraxtlarning obrazlantirilishi	<b>526</b>
<b>Адиба Баҳронова.</b> Бўлажак бошлангич синф ўқитувчиларини дарсдан ташқари тарбиявий фаолиятни амалга оширишга тайёрлаш йўллари	<b>528</b>
<b>Dilova Nargiza Gaybullaevna. Raxmatullayeva Nilufar Komiljonovna.</b> Sinfdan tashqari o'qishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash mazmuni	<b>534</b>
<b>Xalikova Umida Mirovna.</b> Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsiyasida raqamlı texnologiyalarning o'rni	<b>538</b>
<b>Azimova U. L.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion usullar orqali o'quvchilarning og'zaki hisoblash ko'nikmalarini baholash yo'llari	<b>543</b>
<b>Raxmonova M. M.</b> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol usullar bilan ishlashning nazariy asoslari	<b>548</b>
<b>Rustamova Sh.S.</b> Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi ta'lim sifatining kafoloti	<b>550</b>
<b>Safarova N.K.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda vaqtidan unumli foydalanish ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish omili	<b>553</b>
<b>Choliyeva S.S.</b> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	<b>558</b>
<b>Qalandarova S.</b> Savod o'rgatish davrida interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar faolligin ioshirish	<b>561</b>
<b>Shokirova S.Z.</b> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	<b>564</b>
<b>Shukurova L.S.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnalogiyalardan foydalanish	<b>566</b>
<b>Файзиева У.</b> Экологик тарбия маданиятини ривожлантириш ва шакллантириш муаммолари	<b>568</b>